


**Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik
subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari
2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun**

- I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 93,5 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-iyuldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash

Toshkent shahar tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- oktabr holatiga, birlik	2025-yil 1- oktabr holatiga, birlik
Uchtepa tumani	7087	7194
Bektemir tumani	2629	2792
Yunusobod tumani	10295	10883
Mirzo-Ulug'bek tumani	10267	10874
Mirobod tumani	7192	7638
Shayhontoxur tumani	7701	8272
Olmazor tumani	8222	8406
Sirg'ali tumani	5306	5786
Yakkasaroy tumani	8019	8536
Yashnobod tumani	7900	8690
Yangiheyot tumani	2848	3808
Chilonzor tumani	10312	10599
Toshkent sh.	87778	93478

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Toshkent shahrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-sentabrda 14 000 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashirildi

2025- yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 5 087 ta, sanoatda 1 250 ta, boshqa xizmatlarda 3 506 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 134 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik
Uchtepa tumani	865	943
Bektemir tumani	302	398
Yunusobod tumani	1408	1630
Mirzo-Ulug'bek tumani	1480	1498
Mirobod tumani	979	1035
Shayhontoxur tumani	1039	1282
Olmazor tumani	1130	1155
Sirg'ali tumani	821	965
Yakkasaroy tumani	1174	1245
Yashnobod tumani	1150	1481
Yangiheyot tumani	658	975
Chilonzor tumani	1365	1393
Toshkent sh.	12371	14000

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-sentabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 50,3 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 1,2 % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 59 612,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 40,0 % ini tashkil etdi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Yunusobod (65,6 %), Olmazor (61,7 %), Chilonzor (52,8 %), Mirzo-Ulug'bek (50,9 %), Yakkasaroy (50,0 %), Mirobod (42,9%), Uchtepa (36,8 %), Sergeli (31,9 %), Yangihayot (31,9 %), Shayhontoxur (29,0 %), Yashnobod (26,6 %) va Bektemir (23,0 %), hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 42 644,8 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 66,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Uchtepa (87,8 %), Sergeli (87,0 %), Mirzo Ulug'bek (77,0 %), Yashnobod (73,4 %), Chilonzor (70,9 %), Yangiheyot (64,1 %), Mirobod (64,0 %), Yakkasaroy (59,8 %), Shayxontoxur (52,3 %), Yunusobod (52,1 %), Olmazor (46,7 %) va Bektemir (33,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 36 212,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 50,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 124,8 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Olmazor (75,7 %), Uchtepa (65,9 %), Yangihayot (64,1 %), Mirzo Ulug'bek (57,6 %) ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 47 982,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 56,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Chilonzor (8 286,2 mlrd.so'm), Shayhontoxur (6 902,0 mlrd.so'm), Yunusobod (6 741,0 mlrd.so'm), Uchtepa (6 125,8 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keldi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 109 644,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 39,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabroylariga nisbatan 113,1 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yunusobod (13 555,5 mlrd.so'm), Mirobod (12 575,6 mlrd. so'm), Yakkasaroy (11 908,4 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (10 854,3 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 1090,0 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 23,6 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Mirzo Ulug'bek (40,3 %), Olmazor (35,0 %), Yangiheyot (34,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 7993,2 mln AQSH dollarini yoki jami importning 49,0 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa 82,9 %, Yakkasaroy 60,8 %, Olmazor 56,5 % tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 47,6 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,1% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 63,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 70,5 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 78,2 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 160,4 % ni tashkil qildi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Toshkent shahrida kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 30,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida esa 33,7 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-sentabrida nisbatan 3,4 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 63,2 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 57,0 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabrida 6,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko'rsatkich 9,2 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabroylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)



Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2024- yilning yanvar-sentabrida 37,6 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 43,3 % ni tashkil qildi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2024- yilning yanvar-sentabrida 51,6 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 52,2 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2024- yilning yanvar-sentabrida 10,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko'rsatkich 4,5 % ni tashkil qildi.

Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 47,3,% ni, savdo sohasida – 31,7 % ni va sanoat sohasida – 14,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 43,2 % ni, savdo – 37,9 % ni va sanoat sohasida – 13,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 40,2 % ni, savdo – 39,7 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.



Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
D. Kurbanova
71 203-80-03 (3530)

Manzil:

